

QIZAMIQ KASSALIGINING EPIDEMIOLOGIYASI

**BERDIRASULOV DILSHOD KODIROVICH
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
EPIDEMIOLOGIYA KAFEDRASI ASSISTENTI**

ANNOTASIYA : Bugungi maqolamizda Qizamiq bilan har qanday bola, hatto kattalar ham xastalanishi mumkin. Bunda kasallik og‘ir kechishi, asoratlar chaqirishi va ba’zan o‘limga olib kelishi ehtimoli mavjud. Ushbu kasallik har yili butun dunyo bo‘ylab tarqalganligi haqida hamda turlari , oldini olish yo‘llari haqida yoritib berilgan.

Kali so‘zi : Qizamiq , Abortiv shakl, Xira shakl, Asimptomatik shakl, Og‘irlashgan shakl, xastalanishi , asoratlar chaqirishi va ba’zan o‘limga olib kelishi.

АННОТАЦИЯ: В сегодняшней статье корью может заболеть любой ребенок, даже взрослый. В этом случае существует вероятность того, что заболевание пройдёт тяжело, вызовет осложнения, а иногда и приведёт к летальному исходу. Ежегодно объясняется распространение этого заболевания по всему миру, его виды и способы профилактики.

Слово Кали: Корь, Абортная форма, Бледная форма, Бессимптомная форма, Обостренная форма, вызывает заболевание, вызывает осложнения и иногда приводит к смерти.

ANNOTATION : In today's article, any child, even adults, can get sick with Measles. In this case, there is a possibility that the disease will be severe, cause complications and sometimes lead to death. Every year, the spread of this disease throughout the world, its types, and ways of prevention are explained.

Keys word: Measles, Abortive form, Pale form, Asymptomatic form, Aggravated form, causes illness, causes complications and sometimes leads to death.

Qizamiq — belgilari, yuqish yo‘llari, asoratlari, davolash, oldini olish

Qizamiq — o‘tkir infektsion virusli infektsiya bo‘lib, o‘ta yuqumli hisoblanadi. Kasallik belgilari yuqori isitma, xarakterli toshma, tomoq og‘rig‘i, yo‘tal, organizmning jiddiy intoksikatsiyasi bilan namoyon bo‘ladi. Qizamiq bilan har qanday bola, hatto kattalar ham xastalanishi mumkin. Bunda kasallik og‘ir kechishi, asoratlar chaqirishi va ba’zan o‘limga olib kelishi ehtimoli mavjud.



Ushbu kasallik har yili butun dunyo bo‘ylab 150 ming kishi, asosan 10 yoshgacha bo‘lgan bolalarning umriga zomin bo‘ladi. Shu bois, har bir kishi, ayniqsa, yosh bolalarning ota-onasi qizamiq qanday kasallik ekanligini yaxshi bilishlari kerak.

Qayta kasallanish holati odatda immunitet tanqisligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ikki yoshgacha bo‘lgan bolalarda qizamiq bilan kasallanish odatda onada paromiksovirusga qarshi tabiiy yoki vaktsina hisobiga hosil bo‘lgan immunitet mavjud bo‘lmaganda kuzatiladi.^[1] Chaqaloqlar uchun kasallikning xavfi hisobga olinib, homiladorlikni rejalashtirish davrida ayollarga paramiksyovirusga qarshi vaktsina olish tavsiya qilinadi.

Inkubatsion davr

Qizamiq qo‘zg‘atuvchisi inson organizmiga nafas yo‘llarining shilliq qavatlari va ko‘rish a’zolari orqali kiradi.

Virus kirganidan uch kun o‘tgach, paramiksovirus qon oqimiga o‘tadi, limfa tugunlari orqali tarqaladi va taloqda cho‘kadi, u yerda inkubatsiya davri davomida (7-17 kun) qon oqimida faol ravishda ko‘payadi.

Virusning inkubatsiya davri tugagach, yangi hosil qilingan viruslar butun organizm bo‘ylab tarqalib, teri, kon'yuktiva, oshqozon-ichak trakti a’zolari, nafas olish va asab tizimini shikastlaydi.

Qizamiq alomatlari

Qizamiq alomatlari kattalar va bolalar organizmining yetukligi, fiziologik jarayonlarning farqi va immunitetning shakllanganligi nuqtai nazaridan farq qiladi. Kattalarda kasallik ko‘pincha bolalardagiga nisbatan og‘irroq kechadi.

Bolalarda

Bolalarda belgilar kasallikning davriga qarab farq qiladi. Kataral belgilar va umumiy intoksikatsiya bilan ifodalanadigan dastlabki davr 3-5 kun davom etadi.

Research Science and Innovation House



Qizamiqning atipik shakllari

Qizamiqning odatiy klinik ko‘rinishida barcha xarakterli belgilari saqlanib qolsa, atipik shakllarida alomatlar farq qilishi mumkin, xususan:

Zaiflashgan shakl. Bu kasallikning inkubatsion davrida profilaktik muolajalarini (immunoglobulin, steroid gormonlar kiritish, qon, immunitetli donorlar plazmasi quyish va boshqalar) o‘tagan bemorlar uchun xosdir. Bunday holda inkubatsiya muddati 21 kungacha uzayishi mumkin.^[2] Bu shaklda alomatlar aniq ifodalanmaydi. Tana harorati normal bo‘lishi yoki subfebril darajagacha ko‘tarilishi mumkin. Toshma vaqtqi qisqaradi, shilliq qavatlarda toshmalar mavjud bo‘lmaydi, ekzantema oqimtir bo‘ladi. Kasallik tezda va asoratlarsiz o‘tib ketadi.

Abortiv shakl. Bu shakl odatiy qizamiq infektsiyasi kabi boshlanadi, ammo 2-3 kun o‘tgach kasallikning klinik belgilari yo‘qoladi. Gipertermiya faqat birinchi kuni sodir bo‘ladi, undan keyin harorat normal darajaga qaytadi. Toshma asosan yuz qismida va gavdaning yuqori qismida bo‘ladi.

Xira shakl. Bu vaktsinatsiya olgan bemorlar uchun ko‘proq xos. Alomatlar aniq ifodalanmaydi, bemor tezda va asoratlarsiz shifo topadi.



Asimptomatik shakl. O‘ziga xos alomatlar kuzatilmasligi bilan ajralib turadi va faqat qonni immunoglobulinlar uchun laborotoriya tahlili natijasida aniqlanadi.

Og‘irlashgan shakl kamdan-kam uchraydi.^[3] Organizmning kuchli intoksikatsiyasi, gemorragik sindrom bilan kechadi, ko‘pincha kattalar uchun xos sanaladi. Infektsiyani oldini olish uchun 1 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan kichik bolalarni emlash amalga oshiriladi. Emlashdan keyin immunitet uzoq vaqt saqlanib turadi, lekin doim ham butun umr davomida emas. Shuning uchun kattalarga postvaktsinal immunitet yo‘qolganda revaktsinatsiya ko‘rsatiladi.

Bemor bilan aloqa qilganda kasallikning kechishini sezilarli darajada yengillashtiradigan profilaktik chora-tadbir — darhol monovalent vaktsina olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhamadievich N. A., Kodirvich B. D. Patriotic Education as one of the Components Of National Security. Eurasian Scientific Herald 6, 88-90. – 2022.
2. Кодирович Б. Д. БАКТЕРИОЛОГИК ВОСИТАЛАР БИЛАН ЗАРАРЛАНГАН ЎЧОҚДА ЭПИДЕМИЯГА ҚАРШИ ЧОРА ТАДБИРЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ҲУҚУҚИЙ АСПЕКТЛАРИ //Биология ва тиббиёт муаммолари. – 2022. – Т. 3. – С. 217-220.
3. EIE N. A., Muhamadievich L. M. S. B. D. Qodirovich... 2021. Samarqand davlat tibbiyot institutida orientirlash kasbiy amaliy jismoniy tarbiya vositasi sifatida, «Спортивное ориентирование как средство профессионально-прикладной физической подготовки в Самаркандском государственном медицинском институте». UzaCADEMIYA ilmiy-uslubiy jurnali 22 (ISSN€-2181-1334), 102-107.
4. Usmonovna V. M., Qodirovich B. D. SCIENTIFIC ANALYSIS OF VIOLENT INFECTIOUS DISEASES AND THEIR CONTROL //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2023. – Т. 3. – №. 9. – С. 149-153.
5. Med360.uz.

Innovation House